

## **JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH XIZMATI**

**Eshmaxmatov Ulug‘bek Erkin o‘g‘li**

*Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti*

*Iqtisodiyot kafedrasida stajyor o‘qituvchisi*

*E-mail: [ulugbekeshmaxmatov@gmail.com](mailto:ulugbekeshmaxmatov@gmail.com)*

*Tel: +998 (91) 222-26-33*

**Qo‘qonov Hojiakbar**

*Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti*

*Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

***Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi vazifalari hamda soliq tizimi modernizatsiyasining qo‘shimcha chora-tadbirlari ijrosidan kelib chiqib jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotining hozirgi holati, soliq stavkasida yuz bergan o‘zgarishlar hamda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** soliqlar va soliqqa tortish, aholi daromadlari, jismoniy shaxslar, jismoniyshaxslar daromad solig‘i, daromad solig‘i elementlari, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to‘lash tartibi.*

***Аннотация.** В статье на основе дополнительных мер модернизации налоговой системы в Республике Узбекистан и реализации дополнительных мер модернизации налоговой системы рассмотрено современное состояние практики налогообложения доходов физических лиц, изменения в налоговой системе. ставки и вопросы налогообложения доходов физических лиц, предложения и рекомендации.*

***Ключевые слова:** налоги и налогообложение, доходы физических лиц, физические лица, подоходный налог с населения, элементы подоходного налога, порядок исчисления налога, порядок уплаты налога.*

***Annotation.** The article presents the current state of practice of taxing the income of individuals based on the tasks of the concept of improving the tax policy in the Republic of Uzbekistan and the implementation of additional measures of the modernization of the tax system, changes in the tax rate, and suggestions and recommendations regarding the taxation of the income of individuals.*

***Keywords:** taxes and taxation, personal income, individuals, personal income tax, elements of income tax, tax calculation procedure, tax payment procedure.*

### **KIRISH**

Davlat byudjetining asosiy qismi soliqlardan shakillanadi. Davlat byudjetining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan soliq tizimining qanchalik darajada barqaror ishlashi, bevosita mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, mamlakatning barqaror rivojlanishi, aholi turmush darajasi hamda aholiga sifatli ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish holati bevosita soliq tushumlari bilan uzviy bog‘liqdir. Davlat ishlari va xizmatlarini moliyalashtirishga yordam berish va mamlakatda foydalaniladigan infratuzilmani qurish va qo‘llab-quvvatlash uchun hukumat odatda o‘zining jismoniy va korporativ rezidentlaridan soliq undiradi. Yig‘ilgan soliq iqtisodiyotni va unda yashovchilarni hayotini yaxshilash uchun ishlatiladi.

Bugungi kundagi globalizm sharoitida aholining real daromadlari oshirish, tadbirkorlarga qulay biznes muhitini yaratib berish, soliq siyosatining qanchalik darajada oqilona olib borilayotganligi bilan xarakterlanadi.

Soliq stavkalari va soliq yuki davlat, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari manfaatlaridan kelib chiqib belgilanishi, soliqlarning adolatlilik, holislik prinsipiga asoslanadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida davlatning soliq siyosatini aniqlash va belgilashda ularning istiqboliga asoslangan bashoratlarni ishlab chiqishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

Lekin, Respublikamiz uchun hali qirralari to‘la ochilmagan mazkur sohaning barcha yutuq va kamchiliklarini o‘rganishga bo‘lgan munosabat bugungi ahvolini qoniqarli deb bo‘lmasligi, bu sohada chuqur va samarali tadqiqotlar olib borish, uning ko‘lamini oshirib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa, eng avvalo, soliq siyosatining istiqbolini belgilashning mazmuni, vazifalari, xususiyatlari, usullari, samaradorligi kabi o‘ziga xos jihatlarini anglashni talab qiladi.

Soliqlar va soliq munosabatlari to‘g‘risidagi aniq amaliy muammolarni o‘rganish davomida ko‘p marotaba uning nazariy masalalariga duch kelmadi. Shu munosabat bilan, soliqlar va soliq munosabatlari to‘g‘risidagi fundamental muammolarni ishlab chiqish, moliyaviy siyosat vazifalarini hal etishning ilmiy asoslanishi jiddiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

2023-yil 28-dekabr sanasida “Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 891-son qonuni qabul qilingan.

Ushbu Mazkur Qonunda 2024-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanib, bunda Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish yuzasidan belgilab berilgan topshiriqlari, xususan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga soliq solish tartibini takomillashtirish, qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirining uzluksizligini ta‘minlash, tabiiy boyliklardan samarali va oqilona foydalanish, mutlaq summada belgilangan soliq stavkalarining kutilayotgan inflatsiya darajasidan kelib chiqqan holda indeksatsiya qilinishi nazarda tutilgan.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 422-moddasining birinchi qismida soliq stavkalariga quyidagi tartibda o‘zgartirishlar kiritilgan.

T/r	Soliq solish obyektlari	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,31
2.	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni	
	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	0,41
	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	0,55
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,41
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari	1,5

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish to‘laydigan soliqlar va ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlarga tavsifi, soliqlar va ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlarni hisoblash va budjetga to‘lash tartibi, shu jumladan, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish rivojlangan davlatlarning soliq qonunchiligini o‘rgangan holda chuqur tahlillarga asosan belgilanishi kerak. Xususan, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va to‘lash tartiblarini takomillashtirishda soliq solish prinsplariga alohida e‘tibor qaratish kerak.

Bugungi kunda quyidagi prinsplar soliq tizimida amal qiladi:

- Majburiylik prinsipi
- Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi prinsipi
- Adolatlilik prinsipi
- Soliq tizimining yagonaligi prinsipi

- Oshkoralik prinsipi
- Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi

Yuqoridagilarga asosan soliq to'lovchilar uchun adolatli soliq muhitini yaratib berish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- Soliq yukini ijtimoiy adolat me'zonlari me'yorida belgilash;
- Soliq hisob kitoblari, to'lovlari va soliq to'lovlarini oddiy va sodda (hamma qiyinchiliksiz tushunadigan tartibda) ishlab chiqish;
- Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda ular topayotgan daromadlariga e'tibor bergan holda, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori me'yoridan yuqori miqdordagi daromadlarni soliqqa tortish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi. 01.01.2020. – 3-4 b.
2. “Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining 891-son qonuni. 28.12.2023. – 1 b.
3. Adizov A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2012. – 124 b.
4. Vahobov A.V, Jo'raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: “Sharq”, 2009. – 448.